



PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI .

Pulatova Svetlana Rizoqulovna

Zarafshon shahar 2-sonli politexnikumi

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Telefon: +998913322575

pulatovasvetik1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi jumladan professional ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalar, pedagogik tizimni integratsiyalashda asosiy metodologik talab va tamoyillar, asosida O'zbekistonda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etilishi, uning afzalliklari haqida so'z boradi.

Bugungi kunda professional ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi hamda mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'tkazilishi lozimligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan taminlanishi zarurligidan kelib chiqib, fanlarni maqsadli samarali va kafolatlangan natijali o'qitish davr talabidir.

Professional ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan fanlar fundamental bilim berish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirish, nazariya hamda amaliyotning dialektik bog'liqligini ochib berish, idrok etish qobiliyatini oshirish, olgan bilimlarini hayotga, xalq xo'jaligining tarmoqlari uchun tatbiq etish, ta'lim olishni davom ettirish uchun zamin yaratishni ta'minlashdan iborat.



Noana'naviy o'qitish metodlaridan dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish o'qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi. Dars tushunarli, qiziqarli bo'lishi uchun o'quv materiallarini saralash, o'quv jarayonini loyihalashtirish hamda o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan turli topshiriqlarni bajarish uchun tavsiyalar berish zarur. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda yangi adabiyotlardan foydalanish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari va elektron kitoblardan foydalanish fanlar ta'limi darslari samaradorligini yanada oshiradi. Buning uchun esa o'qituvchining o'zi noan'anaviy o'qitish metodlaridan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Kalit so'zlar. Professional, idrok, texnologiya, falsafiy, dialektik, ijtimoiy.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha jumladan ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

O'zbekistonda ilm-fan, texnika va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

“Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'tkazilishi lozimligi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan taminlanishi zarurligidan kelib chiqib, fanlarni maqsadli samarali va kafolatlangan natijali o'qitish davr talabidir.

Professional ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan barcha fanlar ta'limida fundamental bilim berish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini va falsafiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirish, nazariya va amaliyotning dialektik bog'liqligini ochib berish, idrok etish qobiliyatini oshirish, olgan bilimlarini



hayotga, xalq xo'jaligining tarmoqlari uchun tadbqiq etish, ta'lim olishni davom ettirish uchun zamin yaratishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab beruvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda uzluksiz ta'lim tizimi oldiga umumiy hamda mutaxassislik madaniyatini yuksak, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faol, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarni tahlil eta oladigan, istiqbolli masalalarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash vazifalarini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning doimo tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi».

Demak, zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ifodalovchi, uning qondirilishi uchun o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimiga buyurtma berishi, ushbu buyurtmani qondirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minotni yaratishdagi ishtiroki bilan o'quv muassasalari faoliyatini samarali tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lim mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan asoslangan ilmiy bilimlardan yosh avlodni xabardor etish maqsadida tizimli, izchil, uzluksiz va, albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boriladi. XXI asrda texnika va texnologiya



sohalarining jadal rivojlanishi esa ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy o'zgarishlar, ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ta'lim mazmuniga singdirishda peshqadamlikka erishildi.

Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda. Dastlab, «Texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan - «texnos»-hunar va «logos»-fan so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, yoxud texnologik jarayon-bu mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish sohasidagi mehnat jarayoni tushuniladi. Demak, bu ta'rifni tadqiqotimiz mavzusiga ko'chirish mumkin, unda: pedagogik texnologiyalar-bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak xato bo'lmaydi.

Uzoq yillardan beri pedagogik texnologiyalarga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. Texnologiya deganda, sub'yekt tomonidan ob'yektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'yektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'yektga yo'naltirilgan amallarning bajarilishini ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.



“Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo’llash, ularning o’zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir”.

Texnologiya deganda, sub’yekt tomonidan ob’yektga ko’rsatilgan ta’sir natijasida sub’yektda sifat o’zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vosita va sharoitlardan foydalanib, ob’yektga yo’naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko’zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o’quv jarayoniga ko’chiradigan bo’lsak, o’qituvchi (pedagog)ning o’qitish vositalari yordamida o’quvchi-o’quvchilarga muayyan sharoitlarda ko’rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo’lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o’qituvchi tomonidan o’qitish vositalari yordamida o’quvchilarga ta’sir ko’rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta’riflash mumkin. Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta’sir etish kuchiga ega bo’lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o’quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo’qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko’ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o’qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo’qotish;
- ta’lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;



- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, operatsiyalar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyani an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlarini ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olish qobiliyatlari mavjud bo'lib, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda



pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta'lim dasturini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-o'quvchi bilan o'qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga o'quvchi-o'quvchilar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

1. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.. Nizomiy nomdagi TDPU, 2009.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: Nasaf, 2000.
3. G'anieva M. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalar! to'plami. T.. TDIU. Iqtisodiyot. 2013
4. G'anieva M. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to'plami T.. TDIU. Iqtisodiyot. 2013